

BELBOG'LI KURASHNING RIVOJLANISH TARIXI.

Xomudjonova Feruza

Shaxrisabz davlat pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat kafedra mudiri, dotsent

Pardayeva Marjona

Shaxrisabz davlat pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat yunalish

4-kurs sirtqi bo'lim talabasi

Annotatsiya.

Kurash tarixi asosan qadim o'tmishga borib taqaladi. Usha davrlardan boshlab bizgacha kurash turlari rivojlanib kelgan. Maqola mazmuni ham belbog'li kurashning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini haqida so'zlaydi.

Kalit so'zlar. Kurash, tarix, rivojlanish, mashg'ulot, sport, belbog'li kurash, texnika va taktika, usullar.

Kirish.

Belbog'li kurash juda qadim utmishga borib taqaladi. Tarixiy manbalarga ko'ra paydo bo'lish tarixi 2 - 3 - asrlarga borib taqaladi va usha dablardan beri bizgacha rivojlanib yetib kelgan. Belbog'li kurash asosan O'zbekistonning milliy sport turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Belbog'li kurashning ko'p usullari O'zbek xalq milliy kurashiga uxshab ketadi, lekin bu sport turida kurashchilar belbog' orqali kurashishadi. Hozirgi kunda bu sport turi O'zbekistonning Farg'ona viloyatlarida keng tarqalgan.

Asosiy qism.

Belbog'li kurashning ildizi juda qadimiy bo'lib ming yillar oldin qadim turkiy xaqdari o'rtasida paydo bo'lgan. Qadimda u asosan yigitlarning kuch sinashishlari uchun, harbiy

tayyorgarlik uchun asosiy qism sifatida qaralgan. Shu tariqa usha davrlardan paydo bo'lib rivojlanib bizgacha belbog'li kirash sifatida yetib kelgan. XX - asrlardan boshlab bu sport turiga asosan belbog'li kurash sifatida qarala boshlandi va turli qonun - qoidalari ishlab chiqila boshlandi. Masalan : gilamda kurashish, vazn toifalarini belgilash, hakamlilik tizimi va shunga uxshash turli qoidalar joriy etildi. Shu tariqa kurash musobaqalari ham rasmiy tarzda o'tkazila boshlandi. Belbog'li kurash xalqaro sportga 2000 - yildan boshlab aylana boshladi. Ayni usha davrlardan boshlab jahon chempionati, Osiyo chempionatlari va xalqaro turnerlar ham o'tkazila boshladi.

Hozirgi davrda esa belbog'li kurash 50 dan ortiq davlatlarda keng rivojlanib bormoqda. Belbog'li kurashning asosiy qoidalariga, kurashchilarning bir birini belbog'idan ushlab kurashishlari, raqibni toza usulda yiqitish kabilar misol bo'la oladi. Kurash gilam ustida olib boriladi va hakamlar tomonidan nazorat qilinadi. Kurashning shaffof utishi ham ayni shu hakamlar nazorat qilib turadi. Belbog'li kurashning asosiy usullari :

- kutarib tashlash
- yon tomonga tashlash
- orqaga tashlash
- aylantirib tashlash hiwoblanadi.

Bu kabi usullarni bajarish uchun esa kurashchidam mahorat va kuch talab qilinadi.

Xulosa.

Belbog'li kurash kutashning asosiy turlaridan biri bo'lib, hozirgi vaqtda jahon miqyosida rivojlanib bormoqda. Bu sport turi bilan shug'illanish orqali sportchi kuchli bo'lishi bilan bir qatorda milliy va qadimiy tarixga ham ega bo'ladi. Sababi bu sportning kelib chiqishi qadim tarixga borib taqaladi va milliyligimiz ramzi hisoblanadi. Yuqorida keltirib o'tilganidek belbog'li kurash turli usullar va qonun qoidalar asosida o'tkaziladi. Belbog'li kurash nafaqat milliy sport turi balki hozirgi kunda xalqaro miqyosda ham rivoj topib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Komil Yusupov „ Milliy kurash nazariyasi va uslubiyati ".
2. Abdulla Abdullayev „ Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi".
3. Rasulov R. Sport kurashlari mazariyasi.